PREDIKATIV BIRLIKLAR VA MODALLIK KATEGORIYAS

Abdusalomova Sevara Dilshodovna

Qo`qon davlat universiteti 1-kurs magistranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada predikativ birliklar va ularning turli sathdagi ko`rinishlari,ularda ifodalanadigan modallik belgilari xususida gap boradi. Kesim gapning predikativligini, modalligini o'zida shakllantiradigan asosiy sintaktik birlik ekanligi,unda ifodalanadigan modallik kategoriyasini kengroq tahlil qilish maqsad qilib olingan.

Kalit so`zlar: predikativ birliklar,modallik kategoriyasi,sintaktik birlik,predikat.

Abstract

This article discusses predicative units and their manifestations at different levels, as well as the signs of modality expressed in them. Since the clause is the main syntactic unit that forms the predicativity and modality of a sentence, the aim is to analyze the category of modality expressed in it in a broader way.

Keywords: predicative units, modality category, syntactic unit, predicate

Аннотация

В данной статье рассматриваются предикативные единицы и их проявления на разных уровнях, а также знаки модальности, выраженные в них. Поскольку придаточное предложение является основной синтаксической единицей, формирующей предикативность и модальность предложения, цель состоит в более широком анализе категории модальности, выраженной в нем.

Ключевые слова: предикативные единицы, категория модальности, синтаксическая единица, предикат.

Biz ilmiy-amaliyot davrini 30-martdan 27-aprelgacha Farg'ona davlat universiteti filologiya fakultetida bajardik va amaliyot kalendar dastur rejasiga asosan ilmiy tadqiqotimiz ustida ishlay boshladik.Unga ko`ra,magistrlik

dissertatatsiyasimizning 1-bobini yozish uchun ilmiy va badiiy adabiyotlar bilan tanishdik.Bizga biriktirilgan ilmiy rahbardan kerakli yo`nalishlar oldim va bob qismlarini yozishga kirishdim.Shuningdek,bakalavr talabalarining mustaqil kurs ishlarini o`qib uning tahlili yuzasidan taqriz yozdim,shu asnoda ba'zi ilmiy yangiliklar bilan tanishdim.Qolaversa,fakultetda bo`lgan ilmiy seminarlarda,2-kurs magistrlarining monitoringida qatnashdik,o`zimizning ish faoliyatimizga taaalluqli xulosalar oldik,bakalavr talabalarining diplom himoyalariga tayyorgarlikni tekshirish jarayonida ham ishtirok etdik.Jumladan,ilmiy-tadqiqot ishimning nazariy asosi bo`lgan filologiya fanlari doktori M.Hakimovning "O`zbek pragmalingvistika asoslari",Sh.Safarovning "Pragmalingvistika" kabi ilmiy adabiyotlarini o`rganib zarur o`rinlaridan foydalandim.Bu amaliy harakatlarim natijasi sifatida dissertatsiyamning 1-bobini muvaffaqiyatli yakunladim va uni konferensiya va Qo`qon ilmiy jurnalida chop ettirdim.Mana bu amaliyot davrimda amalga oshirgan faoliyatim natijasi:

Gapning sintaktik jihatdan tuzilishidagi markaziy bo'lagi kesim bo'lib, mantiqiy jihatdan markaziy bo'lagi mantiqiy predikatdir.

Kesim gapning predikativligini, modalligini o'zida shakllantirsa,mantiqiy predikat uzviy asosida yuzaga kelgan valentligi namoyon bo'lishi bilan gap tuzilishini yuzaga keltiradi va gapning yangilik o'ramini tarkib toptiradi, mantiq urg'usini olgan bo'lakni belgilaydi.

Demak, predikat gapning asosiy ma'no tashuvchi vositasi hisoblangan sababli predikativlikni ifodalovchi birliklar asosan predikatda ifodalanadi. Predikativlikning shakllari predikatga qo'shiladi. Shuning uchun ham predikativlikni o'zi aks ettirgan har qanday predikatning o'zi eng kichik gapdir.

Bevosita predikatda ifodalanib predikativlikni yuzaga kelishida ishtirok etganligi uchun bular predikativ birliklar hisoblanadi. Ushbu birliklar morfologiyada so'zning biror qismi, ya'ni shakl sifatida o'z ifodasini topadi. Lekin hozirgi sistem tilshunosligida ma'nodan shaklga tomon asosida yuzaga keladigan fikrlardan ko'rinadi-ki, turli grammatik shakllar grammatik xususiyatga ega bo'lishdan tashqari

gapning mazmunini butunligicha o'zgartirib yuborishi yoki birgina shakl orqali bir qancha modal ottenkalarni ifodalay olish holatlarini ham kuzatishimiz mumkin. Bu esa predikativ birliklarning nafaqat shaklini, balki u ifodalagan semalarni ham ko'rib chiqishni talab qiladi.

Predikativlikni ko'rsatishda modal kategoriyalar (nisbat, mayl, bo'lishli-bo'lishsiz va hakazo) muhim sanaladi va real ifodasini ta'minlaydi.

Shunga ko'ra, har bir predikativ birlik haqida alohida to'xtalish joiz.

Predikativlikni yuzaga chiqaruvchi vositalardan biri mayl kategoriyasi hisoblanadi. Mayl ish-harakatning voqelikka munosabatini ifodalovchi kategoriya hisoblanib, fe'ldan anglashilgan ish-harakatning bajarilishi xususiyatini, imkoniyatini, ya'ni real voqelikka, sharoitga bog'langanini ifodalaydi.

Shuni e'tiborga olib, mayl o'z shakllariga ega (ijro, buyruq-istak, shart va hokazo)

Mayl bevosita inson tafakkuriga bog'liq jarayon bo'lganligi uchun rang-barang bo'yoqlarga tovlanishi mumkin. Subyektiv tasavvurlarning boyligi, rang-barangligi, keng ko'lamdagi e'tibori jihatidan har bir mayl tarkibida zamon tizimi ajratish kerak.1

Tilshunoslikda xabar, aniq va ijro mayli deb ataluvchi bosh mayl boshqa mayl shakllaridan farq qilib, unda reallik (yo aniq) qat'iy tusda beriladi. Bu formadagi fe'l o'rniga qarab iltimos, yalinish kabi ma'no noziklariga ega bo'ladi (intonatsiya bilan).Shuningdek,reallikka munosabatining bosh darajasi hisoblangani uchun ma'no ifodalash ancha nofaol bo'ladi.

Ijro mayli mohiyatan biroz farq qilsa ham, boshqa mayllarga zid emas.Ijro maylidan boshqa mayllarning vazifasi modal munosabat bildirishi, ayni vaqtda voqelikni qayd etadi ham.Ijro maylining birlamchi vazifasi harakat-holatning o'zini aks ettirish bilan xarakterlanadi.

1 Xudoyberganova Z. O'zbek tilidagi mayl mezonlari xususida. O'TA. 1997. 5-son. 23-24-betlar

Ammo bu ijro maylida modallik yo'q degani emas. Unda modallik mazmun tarkibiga kiradi va bu mayl fe'llardan anglashilgan ish-harakat ham subyektiv sharoit asosida yuzaga keladi.2

Buyruq-istak maylidagi fe'llarda buyruq-istak semasi yetakchilik qiladi. Bu semalar orqali subyekt holat aniq aks etadi va uning real maqsadi ochib beriladi. Nutq vaziyatiga qarab bu mayl o'z shakli orqali turli ma'no nozikliklarini ifodalashi mumkin. Bu haqida keyinroq to'xtalib o'tamiz.

Shart mayli shakli orqali ish-harakatning bajarilish sharti bevosita ko'rsatiladi va subyektiv munosabat ifodalanadi.

Bu mayl shaklidagi fe'l boshqa biror harakatning bajarilishi uchun shart bo'lgan harakatni bildiradi. Boshqa biror harakatning bajarilisi yoki bajarilmasligi shart mayli shaklidagi fe'l bildirgan harakatning bajarilishi yoki bajarilmasligiga bog'liq bo'ladi.3 Bu maylning nutqda ifodalaydigan boshqa ma'nolari haqida keyingi bobda batafsil to'xtalib o'tamiz.

Har bir gapda ifodalangan fikr, shubhasiz, zamon ma'nosi bilan bog'liq bo'ladi.yuqorida to'xtalganimiz hatto ot predikatda ham doimiy zamon shakli mavjud. Bundan ko'rinib turibdiki, har qanday predikativlikning muhim asosi zamon kategoriyasi hisoblanadi. Zamon kategoriyasi harakatning nutq jarayoniga munosabatini ifodalaydi. Nutq jarayoni ham subyekt tomonidan belgilanadigan qandaydir vaqt bo'lagi bo'lmay, subyektiv zamon(vaqt)ning so'zlovchi gapi, so'zi (nutqi) to'g'ri kelgan bo'lagidir.4 Zamon ma'nolari maxsus shakllar orqali ifodalanadi. Shunga ko'ra, harakatning bajarilish vaqtining nutq jarayoniga munosabati asosida turli zamon ma'no turlari hozirgi o'zbek adabiy tilida mavjud harakatning nutq jarayoniga munosabatini ko'rsatish xususiyatiga ko'ra hozirgi o'zbek adabiy tilidagi fe'lning zamon shakllari uch asosiy guruhga bo'linadi.

2 Nurmonov A. v.b. O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi. Toshkent. Fan. 1992 45-bet

3 Shoabdurahmonov Sh. V.b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent. O'zbekiston. 1980

4 SH. SHoabdurahmonov v.b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent. Fan. 1980. 386 -bet

Birinchisi, o’tgan zamon shakllari (yozdi, yozgan,yozibdi, yozgan edi va boshqalar), ikkinchisi, hozirgi zamon shakllari (yozyapti, yozmoqda va boshqalar), uchinchisi, hozirgi-kelasi zamon (yozadi, boshlaydi kabi)

Har bir zamonning o’ziga xos shakllari mavjud va ushbu shakllarda, shubhasiz,so’zlovchi munosabati ifodalanadi.1.*Qani,ketdik,bo`lmasam,man roziman.2.Ertaga Toshkentga uchib ketyapmiz.*Bu holatda birinchi misolda o`tgan zamon shakli orqali kelasi zamon yashirin pragmatik ma’no,ikkinchi misolda hozirgi zamon shakli orqali kelasi zamon yashirin pragmatik ma’nolar yuzaga chiqmoqda.

Bu munosabat orqali esa predikativlikda modallik yuzaga keladi. Zamon, mayl, shaxs-son kategoriyalarini o’z ichiga olgan modallik predikativlikning asosiy shartidir.

Modallik ma’nosi til sistemasining turli sathlarida kuzatiladi. Modallikni ifodalovchi vositalar aniqlashning yagona metodikasi bo’lmaganligi tufayli modallik ifodalovchi vositalar turli tillar materiallari asosida turlicha ajratilmoqda. Jumladan, N.Yu.Shvedovanining fikricha, modallik vositalariga mayl, gapning alohida konstruksiyalari, intonatsiya, so’z tarkibi, takror, yuklama, undov, kirish(modal)so’z va gaplar mansubdir.

Turkiy tillar materiallari asosida, asosan, quyidagi modallik vositalari ajratiladi: mayl, zamon va shaxs qo’shimchalari, gapning alohida qurilmalari, yuklamalar, so’z tartibi, intonatsiya, yuklama vazifasidagi so’roq olmoshlari, undalmalar, kirish so’z va gaplar.[5]

Bundan ko’rinadiki, modallik nafaqat gap sintaksisi sathi uchun, balki tilning morfologik(mayl, zamon,shaxs affikslari, leksik so’zlarning turli guruhlari), fonetik(intonatsiya) sathlari uchun ham xarakterlidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Xudoyberganova Z. O’zbek tilidagi mayl mezonlari xususida. O’TA. 1997. 5-son. 23-24-betlar

5 Nurmonov. O’sha asar. 81-bet

2.Nurmonov A. v.b. O’zbek tilining mazmuniy sintaksisi. Toshkent. Fan. 1992 45-bet

3. Shoabdurahmonov Sh. V.b. Hozirgi o’zbek adabiy tili. Toshkent. O’zbekiston. 1980

4. SH. SHoabdurahmonov v.b. Hozirgi o’zbek adabiy tili. Toshkent. Fan. 1980. 386- bet